JADIDLAR IZDOSHI: MILLIY UYG'ONISHDAN UCHINCHI RENISSANS SARI

Baxramova Madina Abdihakim qizi
Chirchiq Davlat pedagogika unversiteti
https://doi.org/10.5281/zenodo.23078511

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqolada XX asr boshlarida Turkiston ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotida tub burilish yasagan jadidchilik harakati va uning bugungi kundagi izdoshlari faoliyati majmuali tahlil etilgan. Tadqiqotda jadidlar ma'rifatparvarlik g'oyalarining davomiyligi, milliy o'zlikni anglash va mustaqil davlatchilik poydevorini mustahkamlashdagi tarixiy va zamonaviy ahamiyati ochib berilgan.
Kalit so'zlar: Jadidchilik, Turkiston ziyolilari, milliy uyg'onish, jadidlar izdoshlari, ma'rifatparvarlik, Uchinchi Renessans, milliy o'zlik, yangi usul maktablari, ma'naviy meros, intellektual salohiyat.

Abstract: The scientific article provides a comprehensive analysis of the Jadid movement, which made a fundamental change in the socio-political and cultural life of 20th-century Turkestan, and the main activities of its current followers. The study reveals the historical and contemporary significance of the Jadid ideas in the support of enlightenment, the awareness of national identity and the foundation of independent statehood.
Keywords: Jadidism, Turkestan intellectuals, national awakening, followers of Jadids, enlightenment, Third Renaissance, national school, new methods, spiritual heritage, intellectual construction.

Аннотация: Научная статья представляет собой всесторонний анализ движения джадидов, которое внесло фундаментальные изменения в социально-политическую и культурную жизнь Туркестана XX века, а также основных направлений деятельности его современных последователей. Исследование раскрывает историческое и современное значение идей джадидов в поддержке Просвещения, осознании национальной идентичности и создании независимого государства.
Ключевые слова: джадидизм, туркестанская интеллигенция, национальное пробуждение, последователи джадидов, Просвещение, Третий Ренессанс, национальная школа, новые методы, духовное наследие, интеллектуальное строительство.

Insoniyat tarixi shundan dalolat beradiki, har qanday millat va xalqning o'zligini anglashi, ozodligi va taraqqiyoti uning intellektual elitasi, ya'ni ziyolilari faoliyati bilan bevosita bog'liqdir. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida chor Rossiyasi mustamlakachiligi zulmi ostida qolgan Turkiston o'lkasida mana shunday tarixiy missiyani jadidlar (arabcha "jadid" – yangi) o'z zimmalariga oldilar. Jadidchilik nafaqat maorifni isloh qilish, balki millatni g'avroslik, jaholat va qaramlik botqog'idan olib chiqishga qaratilgan qudratli ijtimoiy-siyosiy, madaniy va ma'rifiy harakat edi.

Bugun, XXI asrda, O'zbekiston o'z taraqqiyotining yangi bosqichiga – Uchinchi Renessans poydevorini barpo etish davriga qadam qo'ygan bir vaqtda, jadidlar merosini o'rganish va ularning g'oyaviy izdoshlarini shakllantirish masalasi davlat siyosatining eng ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Zero, jadid bobolarimiz orzu qilgan mustaqil, erkin, ilmli va dunyo bilan bo'ylasha oladigan jamiyat qurish vazifasi bugungi avlod, ya'ni "Jadidlar izdoshlari" zimmasidadir. Ushbu tadqiqotning maqsadi jadidchilik g'oyalarining evolyutsion taraqqiyotini tahlil qilish, ularning bugungi kundagi

vorislarini aniqlash va zamonaviy o‘zbek jamiyatida jadidona tafakkurni qayta tiklashning ijtimoiy-falsafiy omillarini tadqiq etishdan iboratdir.

Turkistonda ijtimoiy-siyosiy vaziyat va jadidchilikning vujudga kelishi

XIX asrning ikkinchi yarmida Rossiya imperiyasi tomonidan Turkiston o‘lkasining bosib olinishi hududda chuqur ijtimoiy-iqtisodiy va ma’naviy inqirozni keltirib chiqardi. Mahalliy aholi nafaqat siyosiy erkinlikdan, balki o‘z madaniy ildizlaridan ham uzilish xavfi ostida qoldi. An’anaviy maktab va madrasalar davr talablariga javob bermay qolgan, sxolastika (quruq gap sotishlik) va aqidaparastlik ta’lim tizimini butunlay falaj qilgan edi. Bunday sharoitda Mahmudxo‘ja Behbudiy, Munavvarkori Abdurashidxonov, Ismoil Gasprinskiy, Abdurauf Fitrat, Abdulla Avloniy kabi mutafakkirlar dunyo taraqqiyotidan orqada qolishning asosiy sababi jaholat va ilmsizlikda ekanini anglab yetdilar. Ular jamiyatni tubdan isloh qilishning yagona yo‘li sifatida maorifni ko‘rdilar va maydonga "usuli jadid" (yangi usul) maktablarini olib chiqdilar.Jadidchilik harakati shunchaki o‘qish va yozishni o‘rgatish maskani emas, balki milliy ozodlik harakatining g‘oyaviy markaziga aylandi. Jadidlar o‘z chiqishlarida quyidagi fundamental vazifalarni ilgari surdilar: ta’lim tizimiga dunyoviy fanlarni (geografiya, matematika, fizika, tarix va h.k.) kiritish; xotin-qizlar savodxonligini oshirish va ularning jamiyatdagi huquqlarini tiklash; milliy matbuot va teatrni shakllantirish orqali xalqning ijtimoiy ongini uyg‘otish; iqtisodiy mustaqillikka erishish uchun milliy burjuaziya va tadbirkorlar qatlamini yaratish.

Jadid ma’rifatparvarlarining konseptual g‘oyalari Jadidchilik faqatgina amaliy harakat emas, balki chuqur falsafiy-nazariy asosga ega bo‘lgan mafkura edi. Mahmudxo‘ja Behbudiyning "Haq olinur berilmas", "Dunyo imorati ilm ila bo‘lur" kabi da’vatlari millatni huquqiy va ilmiy jihatdan uyg‘onishga chaqirdi. Abdulla Avloniyning "Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir" degan fundamental asosi bugun ham o‘z qimmatini yo‘qotmagan. Jadidlar inson kapitalini rivojlantirmasdan, uning dunyoqarashini o‘zgartirmasdan turib, milliy mustaqillikka erishib bo‘lmasligini juda yaxshi bilar edilar. Fitratning "Rahbari najot" va "Oila" kabi asarlarida esa ijtimoiy hayotning eng kichik bo‘g‘inidan tortib, davlat boshqaruvigacha bo‘lgan tizimni yangilash strategiyasi ishlab chiqilgan edi. Ular islom dinining asl mohiyatini saqlagan holda, uni progressiv taraqqiyot asbobi sifatida talqin etdilar va xurofotga qarshi keskin kurashdilar.

Sovet mustabid tuzumi va jadidlarning qatag‘on qilinishi

1917-yilgi oktyabr to‘ntarishidan so‘ng, Turkiston muxtoriyatining qonli bostirilishi sovet hukumatining milliy ziyolilarga nisbatan asl qiyofasini ko‘rsatdi. Jadidlar dastlab sovet tizimi imkoniyatlaridan foydalanib, xalq maorifini ko‘tarishga harakat qildilar. Biroq, kommunistik mafkura uchun milliy o‘zligini anglagan, mustaqillikni istagan ziyolilar eng xavfli dushman edi. 1930-yillardagi "Katta terror" davrida o‘zbek millatining eng sara farzandlari – cho‘lponlar, qodiriylar, fitratlar, fayzulla xo‘jayevlar "xalq dushmani", "panturkist", "burjua millatchisi" degan soxta ayblovlar bilan otib tashlandi yoki surgun qilindi. Bu shunchaki jismoniy yo‘q qilish emas, balki millatning intellektual genofondini qirqish va uning tarixiy xotirasini o‘chirishga qaratilgan tizimli geosiyosiy amaliyot edi. Tarixiy saboqlar: nega jadidlar g‘oyasi o‘lmadi? Mustabid tuzum qanchalik harakat qilmasin, jadidlar ekkan ma’rifat urug‘i butunlay yo‘q bo‘lib ketmadi. Ularning asarlari yashirincha o‘qildi, g‘oyalari esa keyingi avlod ijodkorlari (60-yillar ziyolilari: Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Odil Yoqubov, Pirimqul Qodirov) ijodida majoziy shakllarda yashashda davom etdi. Tarixiy saboq shuni ko‘rsatadiki: g‘oyani otib bo‘lmaydi: millatning ozodligi va ilmiy taraqqiyotiga qaratilgan haqiqat g‘oyalari har qanday mafkuraviy tazyiqdan ustun chiqadi. Milliy zanjir uzilmaydi: jadidlar yaratgan adabiy til, teatr an’analari va ilmiy metodologiya mustaqillikka erishishimiz uchun ma’naviy zamin bo‘lib xizmat qildi.

Davlat siyosati darajasidagi e’tibor O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach, jadidlar nomini oqlash va ularning merosini o‘rganishning birinchi bosqichi boshlandi. Biroq, so‘nggi yillarda,

ya'ni Yangi O'zbekistonni barpo etish jarayonida bu masala butunlay yangicha mazmun va strategik ahamiyat kasb etdi. Prezident Shavkat Mirziyoyev rahbarligida jadidchilik harakatini tadqiq etish, ularning nomlarini abadiylashtirish bo'yicha ulkan ishlar amalga oshirildi. Toshkent shahrida "Shahidlar xotirasi" xiyobonining qayta qurilishi, "Qatag'on qurbonlari xotirasi" davlat muzeyining faoliyati va hududlardagi oliy ta'lim muassasalarida uning bo'limlari ochilishi shular jumlasidandir. Eng muhimi, soxta ayblovlar bilan sudlangan yuzlab jadidlar va ularning safdoshlari O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi tomonidan rasman oqlandi. Bu shunchaki huquqiy jarayon emas, balki milliy adolat va g'ururning tiklanishidir. "Jadidlar" nomli ko'p jildli asarlar to'plamining ijtimoiy ahamiyati Bugungi kunda jadidlarning asarlari ko'p ming nusxada chop etilib, yoshlar orasida keng targ'ib qilinmoqda. Ularning maktab darsliklariga kiritilishi va maxsus fan sifatida o'qitilishi yosh avlodning mafkuraviy immunitetini mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Jadidlar merosi – bugungi globallashuv asrida milliy madaniyatimizni g'arbparastlik yoki radikalizm kabi yot oqimlardan himoya qiluvchi eng ishonchli ma'naviy qalqondir. Bugungi kunda jadidlar izdoshining ma'naviy va intellektual qiyofasi "Jadidlar izdoshlari" deganda faqatgina tarixiy kiyimlarni kiyib yurgan yoki shunchaki jadidlar haqida maqola yozadigan insonlarni tushunmaslik kerak. Zamonaviy jadid vorisi – bu mutlaqo yangicha dunyoqarashga, yuksak intellektual salohiyatga va eng muhimi, qalbida millat dardiga ega bo'lgan shaxsdir. Bugungi kun jadid izdoshining asosiy mezonlari quyidagilardan iborat: mukammal ilm va professionalism, amonaviy izdosh dunyoning eng ilg'or ilm-fan sohalarini (sun'iy intellekt, biotexnologiya, raqamli iqtisodiyot, kosmonavtika) egallagan va o'z sohasining yetuk mutaxassisi bo'lgan shaxsdir. Ko'p tillilik (Poliglotlik): Mahmudxo'ja Behbudiy "Ikki emas, to'rt til lozim" deb bong urgan edi (turkiy, forsiy, arabcha va ruscha). Bugungi jadid izdoshi o'z ona tilini muqaddas bilgan holda, ingliz, xitoy, nemis, arab yoki yapon tillarini mukammal bilishi va jahon axborot makonida bemalol raqobat qila olishi shart. Milliy g'oya va vatanparvarlik. Har qanday yuksak texnologiyali bilim agar milliy zamin va vatan manfaati bilan sug'orilmagan bo'lsa, u kashfiyot "bosh miya ko'chishi" (brain drain) orqali boshqa davlatlarga xizmat qilib ketadi. Jadid izdoshi qayerda o'qimasin va ishlamasin, o'z Vatanining yuksalishiga hissa qo'shishni oliy maqsad deb biladi."Jadidlar izdoshlari" respublika ko'rik-tanlovining roli Yoshlar orasida jadidona tafakkurni shakllantirishda davlat miqyosida tashkil etilayotgan "Jadidlar izdoshlari" ko'rik-tanlovlari, intellektual loyihalar alohida o'rin tutadi. Ushbu tanlovlar shunchaki quruq yodlash musobaqasi emas, balki yoshlarning ijtimoiy-siyosiy loyihalar yaratish, jamiyatdagi muammolarga kreativ yechimlar taklif qilish qobiliyatini sinovdan otkazmoqda. Bu orqali mamlakatda yangi intellektual qatlam – Yangi O'zbekistonning strategik zaxirasi shakllanmoqda. Jadidchilik harakati – o'zbek xalqining ijtimoiy-siyosiy va madaniy tarixidagi eng yorqin, eng progressiv va fundamental sahifadir. Jadidlar o'z jonlari evaziga millatning yashab qolishi, uning o'zligi va kelajagi uchun kurashdilar. Ularning qoldirgan boy merosi shunchaki tarixiy hujjat emas, balki bugungi va kelajak avlodlar uchun hayotiy dasturulamaldir. Bugungi kun yoshlari o'zlarini "Jadidlar izdoshlari" deb hisoblar ekanlar, bu nomning ortida ulkan mas'uliyat turganini anglashlari lozim. Bu mas'uliyat – tinimsiz o'qish, jahon ilm-fan cho'qqilarini zabt etish, jamiyatda adolat, ma'rifat va qonun ustuvorligini ta'minlash hamda O'zbekistonni dunyodagi eng rivojlangan davlatlar qatoriga olib chiqishdan iboratdir.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, jadidlar boshlagan milliy uyg'onish harakati bugun yangi bosqichda davom etmoqda. Ushbu harakatning muvaffaqiyati va Uchinchi Renessansning poydevori aynan jadidona tafakkurga ega, vatanparvar va intellektual yoshlar qo'lidadir.

Foydalangan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2021.
2. Behbudiy Mahmudxo'ja. Tanlangan asarlar (Tuzuvchi va so'zboshi muallifi: B.Qosimov). – Toshkent: "Ma'naviyat", 1999.

3. Fitrat Abdurauf. Oilaning boshqarish tartiblari (Tarjimon va nashrga tayyorlovchi: B.Ergashev). – Toshkent: "Sharq", 1998.
4. Avloniy Abdulla. Turkiy Guliston yoxud axloq. – Toshkent: "O‘qituvchi", 1992.
5. Qosimov B. Milliy uyg‘onish: jasorat, ma’rifat, fidoiylik. – Toshkent: "Ma’naviyat", 2002.